





SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI



*(2022- yil yanvar-sentabr
oylari uchun dastlabki
ma'lumot)*

Sirdaryo iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2022- yilning yanvar-sentabr oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **561,1** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2021- yilga shu davriga nisbatan **44,9** mln. AQSh dollariga yoki **8,7** % ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI

(yanvar-sentabr, ming. AQSh dollari)


	2021- yil	2022- yil	O'sish surati, foizda	jamiga nisbatan, foizda
Tashqi savdo aylanmasi	516 191,2	561 076,0	108,7 %	x
Eksport 	175 713,2	226 407,1	128,9 %	100,0
 tovarlar	173 660,3	224 135,1	129,1	99,0
 xizmatlar	2 052,9	2 272,0	110,7	1,0
Import 	340 478,0	334 668,9	98,3 %	100,0
 tovarlar	340 478,0	334 668,9	98,5 %	100,0
 xizmatlar	00	0,0	0,0	0,0
 Saldo	-164 764,8	-108 261,8	x	x



Ma'lumot uchun: Sirdaryo viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSAda eksport hajmi **226,4** mln. AQSh dollariga (**28,9** % ga ko'paydi) va import hajmi **334,7** mln. AQSh dollariga (**1,7** % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida – **108,3** mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

SIRDARYO VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR (2022- yil yanvar-sentabr, ulushi, foizda.)



SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI



Sirdaryo viloyati tashqi savdo aylanmasi yanvar-sentabr oylarida **561,1** mln. AQSh dollari qiymatida qayd etilib, o'tgan yilning shu oyiga nisbatan **48,9** mln. AQSh dollariga ko'paydi.


Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSAda Afg'oniston, Tojikiston, va Qozog'iston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSAda eng yuqori ulush Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi va Italiya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



10 TA YIRIK HAMKOR-DAVLATLAR ICHIDA TO'RTTA FAOL TASHQI SAVDO BALANSI KUZATILGAN DAVLATLAR (2022- yil yanvar-sentabr)



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 10 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan to'rtta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Rossiya Federatsiyasi (**86,7** mln. AQSh dollari), Qozog'iston (**150,5** mln. AQSh dollari), Xitoy Xalq Respublikasi (**97,7** mln. AQSh dollari), va Afg'oniston (**74,8** mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 6 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

Sirdaryo viloyati jahonning **50** ga yaqin mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA da salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasi (**15,5 %**), Qozog'iston (**26,9 %**), Xitoy Xalq Respublikasi (**17,4 %**), Afg'oniston (**13,4 %**), Italiya (**7,9 %**), Tajikiston (**2,4 %**) va Turkiya (**4,9 %**) qayd etilgan.

SIRDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari)











Davlatlar	2020	2021	2022
Rossiya Federatsiyasi	85,2	131,4	86,7
<i>Eksport</i>	21,3	32,9	45,0
<i>Import</i>	63,9	98,5	41,7
Qozog'iston	85,6	121,9	150,5
<i>Eksport</i>	18,8	15,5	17,9
<i>Import</i>	66,8	106,4	132,6
Xitoy Xalq Respublikasi	71,4	89,2	97,7
<i>Eksport</i>	15,8	35,0	38,7
<i>Import</i>	55,6	54,2	59,0



SIRDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari)




Davlatlar	2020- y.	2021- y.	2022- y.
Afg'oniston	40,0	63,4	74,8
 Eksport	40,0	63,4	73,7
Import	-	-	1,1
Pokiston	2,1	7,0	8,1
 Eksport	2,1	6,6	7,0
Import	-	0,4	1,1
Litva	5,0	2,8	1,9
 Eksport	-	-	-
Import	5,0	2,8	1,9
Qirg'iz Respublikasi	2,9	3,8	7,9
 Eksport	0,8	3,1	2,4
Import	2,1	0,7	5,5
Turkiya	15,1	18,4	27,5
 Eksport	1,1	7,4	15,6
Import	14,0	11,0	11,9
Italiya	0,8	4,7	44,1
 Eksport	-	-	-
Import	0,8	4,7	44,1
Germaniya	35,5	23,2	6,8
 Eksport	-	0,1	1,2
Import	35,5	23,1	5,6
Tojikiston	4,1	3,8	13,2
 Eksport	3,5	3,5	11,2
Import	0,6	0,3	2,0



SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2022- yil yanvar-sentabr)



	Ming. AQSh dollari	O'sish sur'ati, foizda
Sirdaryo viloyati	561 076,0	108,7
Boyovut t.	38 685,8	186,0
Guliston t.	14 000,5	85,3
Mirzaobod t.	26 534,7	150,1
Oqoltin t.	7 005,4	83,4
Sardoba t.	5 300,4	98,2
Sayxunobod t.	35 780,0	75,0
Sirdaryo t.	214 405,4	168,6
Xovos t.	19 837,6	93,5
Guliston sh.	64 360,1	105,3
Shirin sh.	2 490,0	3,1
Yangiyer sh.	131 651,0	120,4

**Eng yuqori hajm,
ming AQSh dollari**

Sirdaryo t.– 214 405,4

Yangiyer sh. – 131 651,0

Guliston sh. – 64 360,1

**Eng quyi hajm,
ming AQSh dollari**

Oqoltin t.– 7 005,4

Sardoba t.– 5 300,4

Shirin sh. – 2 490,0

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumani **38,6 %** ulush bilan **191 318,0** ming AQSh dollarini tashkil etdi.




Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng quyi ulushni Shirin shahri **0,5 %** ulush bilan **2 420,9** ming AQSh dollarini tashkil etdi.



Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **47,5 %** ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2021- yilga nisbatan ulushi **4,9 %** ga kamaygan.

SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(2022- yil yanvar-sentabr mln AQSh dollari, ulushi, foizda)



Boshqa xorijiy davlatlarning TSAsi 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida 2021- yil ulushiga nisbatan **20,5 %** ga ko'payib va jami TSA'dagi ulushi **52,5 %** ni tashkil etdi.



SIRDARYO VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2022- yil yanvar-sentabr, ming AQSh dollari)




1992- yil 4- yanvarda O'zbekiston Respublikasi MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi) ga a'zo bo'ldi. Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2022- yil yanvar-sentabr holatiga **266 722,4** ming. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **79 590,0** ming AQSh dollariga yetgan bolsa, import **187 132,4** ming AQSh dollari qiymatida qayd etildi.

Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya Federatsiyasi (**32,5 %**), Qozog'iston (**56,4 %**), Qirg'iz Respublikasi (**3,0 %**), Turmaniston (**1,8 %**) va Tojikiston (**4,9 %**) davlatlari bilan qayd etildi.



SIRDARYO VILOYATINING YEVROOSIYO IQTISODIY ITTIFOQIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-sentabr, ming AQSh dollari, ulushi, foizda)



Jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi

43,9 %

Jami eksportdagi ulushi

29,1 %

Jami importdagi ulushi

53,9 %

2020- yil 11- dekabrda O'zbekiston Respublikasi Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqida kuzatuvchi maqomini oldi. YOII bilan Sirdaryo viloyatining tashqi savdo aylanmasi **246 292,3** ming AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **65 819,2** ming AQSh dollari, import hajmi esa **180 473,1** ming AQSh dollariga yetdi.



SIRDARYO VILOYATI EKSPORTI


(2022- yil yanvar-sentabr)



Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning eksportyorlari soni **165** tani tashkil etib, ular tomonidan **226 407,1** ming AQSh dollari qiymatidagi (2021- yilning mos davriga nisbatan **28,9** % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2022- yil yanvar-sentabr, ulushi, foizda)



Eksport tarkibida tovarlar ulushi **99,4** % ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (**36,0** %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**42,5** %) va kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**5,1** %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



SIRDARYO VILOYATI XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2022- yil yanvar-sentabr, oylari yillar kesimida)



XSST tarkibi	Ming AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2021	2022	2021	2022	2021	2022
Jami eksport	175 713,2	226 407,1	153,2	128,8	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	82 191,0	95 911,4	133,1	116,7	47,1	42,5
Ichimliklar va tamaki	19,0	30,4	176,5	160,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	11 845,7	10 199,7	101,3	86,1	6,8	4,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	35,3	0,0	0,0	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	854,5	0,0	0,0	0,0	0,4
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	3 727,7	11 599,0	75,3	3,1m.	2,1	5,1
Sanoat tovarlari	54 883,6	81 117,0	2,4 m.	147,8	31,4	36,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	4 783,9	6 555,8	2,8 m.	137,0	2,7	2,9
Turli hil tayyor buyumlar	16 106,7	17 832,0	157,4	110,7	9,2	7,9
Xizmatlar	1080,8	1 445,3	161,0	133,7	0,7	0,7



SIRDARYO VILOYATI EKSPORTI



Sirdaryo viloyati eksporti yanvar-sentabr oylarida **226 407,1** ming AQSh dollari qiymatida qayd etilib, o'tgan yilning shu oyiga nisbatan **50 693,9** ming AQSh dollariga ko'paydi.

XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2022- yil yanvar-sentabr)



XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2021- yilga nisbatan, foizda
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	20 006,1	101,7
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	72 486,3	120,2
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	528,8	61,1 m.
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	266,9	6,0 m.
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	0,2	22,2
Tamaki va tamaki mahsulotlari	30,2	167,8
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	5 564,0	54,1
Tabiiy kauchuk (sun'iy kauchuk va regeneratsiya qilingan rezina xam)	159,6	2,8 m.
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	349,4	53,6
Qog'oz massasi va makulatura	3 480,2	6,1 m.
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Tabiiy yoki sun'iy gaz	0,0	0,0
Ko'mir, koks va briketlar	28,3	0,0
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	7,0	0,0



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2022- yil yanvar-sentabr)



XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2021- yilga nisbatan, foizda
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	854,5	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	4 653,4	153,3
Birlamchi shakilda bo'lmagan plastmassalar	172,6	109,0
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va boyo'qlar	138,6	145,4
Tibbiyot va farmasevtika mahsulotlari	6 413,3	15,0 m.
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	57 447,6	160,0
Teri, boshqa joyda tasniflanmagan teridan tayyorlangan buyumlar , muyna	12 613,7	112,0
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	8 809,1	139,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalari		
Aniq sohalar uchun mahsus mo'ljallangan mashinalar	683,5	2,7 m.
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari, boshqa joyda tasniflanmagan, va ularning elektr qismlari (boshqa joyda tasniflanmagan elektr maishiy asboblarning elektr bo'lmagan qismlari ham)	223,2	3,7 m.
Sanoat uchun mahsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	5 341,5	164,2
Turli hil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	15 453,3	100,7
Har hil tayyor buyumlar	1 319,4	2,6 m.






MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(2022- yil yanvar-sentabr, mln AQSh dollari, ulushi, foizda)



So'nggi yiliarda MDH mamlakatlariga eksport hajmi kamaydi va ularning jami eksportdagi ulushi 2021-yilning yanvar-sentabrida **32,7** % ni 2022- yilning yanvar-sentabrida **35,2** % ga kamaydi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi **64,8** % ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2022- yil yanvar-sentabr, foizda)

2022- yilning yanvar-sentabr oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Afg'oniston (eksport umumiy hajmining **32,7** %), Rossiya Federatsiyasi (**20,0** %), Xitoy Xalq Respublikasi (**17,2** %), Qozog'iston (**7,9** %), Turkiya (**6,9** %), Tajikiston (**5,0** %) va boshqa davlatlarning eksportdagi ulushi **10,3** foizni tashkil etmoqda.



**SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORT HAJMI
VA O‘SISH SUR‘ATLARI (2022- yil yanvar-sentabr, yillar kesimida)**




Davlatlar	Ming AQSh dollari		O‘shish sur‘ati, foizda		O‘rni	
	2021	2022	2021	2022	2021	2022
Afg‘oniston	63 382,2	73 779,7	158,1	116,4	4	4
Rossiya Federatsiyasi	32 941,7	45 033,2	154,5	136,7	5	3
Xitoy Xalq Respublikasi	34 953,6	38 719,5	2,2 m.	110,8	3	6
Qozog‘iston	15 541,7	17 905,1	82,8	115,2	7	5
Turkiya	7 361,1	15 592,7	6,7 m.	2,1 m.	1	2
Tojikistan	3 543,3	11 210,7	100,9	3,2 m.	6	1
Qirg‘iz Respublikasi	3 067,5	2 375,8	3,8 m.	77,5	2	7



SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2022- yil yanvar-sentabr)



	Ming. AQSh dollari	O'sish sur'ati, foizda
Sirdaryo viloyati	226 407,1	128,9
Boyovut t.	16 631,3	143,5
Guliston t.	12 886,5	90,1
Mirzaobod t.	20 127,0	194,4
Oqoltin t.	4 937,2	129,4
Sardoba t.	2 701,3	149,3
Sayxunobod t.	20 851,3	137,9
Sirdaryo t.	64 718,5	157,6
Xovos t.	13 025,4	110,8
Guliston sh.	18 573,9	91,6
Shirin sh.	1 691,6	52,1
Yangiyer sh.	49 242,0	118,9

Eng yuqori hajm,
ming AQSh dollari

Sirdaryo t.– 64 718,5

Yangiyer sh. – 49 242,0

Sayxunobod t.– 20 851,3

Eng quyi hajm,
ming AQSh dollari

Oqoltin t.– 4 937,2

Sardoba t.– 2 701,3

Shirin sh. – 1 691,6

Viloyatning eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumani **28,6 %** ulush bilan **64 718,5** ming AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyatda eksport tarkibida Shirin shahri **0,7 %** ulush bilan **1 691,6** ming AQSh dollarini tashkil etmoqda.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Sirdaryodagi meva-sabzavot sektori mamlakat va hududlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim segment hisoblanadi. Shuning uchun, bu sohada meva va sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish uchun barcha choralar ko'rilmoqda, bu esa o'z natijalarini bermoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **20 046,1** ming AQSh dollari qiymatli **36 264,8** tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2021- yilning mos davriga nisbatan **368,5** ming AQSh dollarida ko'paygani kuzatilib, **1,9** % ga ko'paydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, **14 058,1** ming AQSh dollariga teng **22 244,4** tonna sabzavot, shuningdek, **5 988,0** ming AQSh dollari qiymatidagi **14 020,4** tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2022- yil yanvar-sentabr)



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston hamda Pokiston davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi **58,1** % ni tashkil etdi.

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT

GEOGRAFIYASI (2022- yil yanvar-sentabr)

Davlatlar	Tonna	ming AQSh dollari	ulushi, foizda *
Afg'oniston	846,7	595,9	3,0
Pakistan	1 793,0	4 718,8	23,5
Rossiya Federatsiyasi	1 813,8	2 415,7	9,0
Qozog'iston	22 563,8	5 129,2	25,6
Xitoy Xalq Respublikasi	1 305,0	1 219,3	6,1
Eron (Islom Respublikasi)	1 633,4	1 705,6	8,5

* qiymat ifodasidan

Meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qozog'iston to'g'ri keladi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **25,6** % ga tashkil etdi.)



SIRDARYO VILOYATINING IMPORTI (2022- yil yanvar-sentabr)




2022- yilning yanvar-sentabr oylarida import hajmi **334 668,9** ming AQSh dollarini va 2021- yilga nisbatan **98,3** % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**38,6** %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**17,5** %) hamda mashinalar va transport asbob-uskunalari (**27,0** %) hisobiga to'g'ri keldi.

XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2022- yil yanvar-sentabr ulushi, foizda)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **5 809,1** ming AQSh dollariga kamayib va **334 668,9** ming AQSh dollarini tashkil etdi.



SIRDARYO VILOYATI XSST BO‘YICHA IMPORT TARKIBI (2022- yil yanvar-sentabr, oylari yillar kesimida)



XSST tarkibi	Ming AQSh dollari		O‘sish sur‘ati, foizda		Umumiy hajmga nisbatan, foizda	
	2021	2022	2021	2022	2021	2022
Jami import	340 478,0	334 668,9	83,9	98,3	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	98 144,4	129 019,0	147,4	131,5	28,8	38,6
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	10 992,7	17 328,1	114,5	157,6	3,2	5,2
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	49 637,4	10 754,4	5,3 m.	21,7	14,6	3,2
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	7 713,2	4 391,7	13,7 m.	56,9	2,3	1,3
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	36 715,8	58 591,9	85,1	159,6	10,8	17,5
Sanoat tovarlari	22 761,2	20 273,5	109,0	89,1	6,7	6,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	107 701,9	90 473,9	89,5	84,0	31,6	27,0
Turli hil tayyor buyumlar	6 800,3	3 836,5	44,3	56,4	2,0	1,1
Xizmatlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0





Sirdaryo viloyati importi yanvar-sentabr oylarida **334 668,9** ming AQSh dollari qiymatida qayd etilib, o'tgan yilga nisbatan **5 809,1** ming AQSh dollariga kamaydi.

XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2022- yil yanvar-sentabr)



XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2021-yilga nisbatan, foizda
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	107 626,3	137,6
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	362,8	107,9
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	9 150,6	2,7 m.
Tirik hayvonlar , 03 bo'lmiga kiritilgan hayvonlardan tashqari	5 856,6	67,2
Ichimliklar va tamaki		
Tamaki va tamaki mahsulotlari	0,0	0,0
Ichimliklar	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Probka va yog'och-taxtalar	5 350,8	134,4
56 bo'limga kiritilmagandan tashqari o'g'itlar uchu xom-ashyolar	1 913,7	2,2 m.
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	6 578,7	136,9
To'qimachilik tolalari va ularning chqindilari	1 219,2	167,0 m.
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	2 120,4	5,0
Ko'mir, koks va briketlar	8 634,0	125,4



XSSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2022- yil yanvar-sentabr)





XSSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2021-yilga nisbatan, foizda
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmasevtika mahsulotlari	2 552,2	122,0
Birlamchi shakldagi plastmassalar	31 129,3	31,5 m.
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	7 299,3	3,5
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va buyoklar	9 304,7	106,9
O'g'itlar (272 guruxga kiritilganlardan tashkari)	81,2	84,9
Noorganik kimyo moddalari	4 933,1	2,5 m.
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	5 267,7	149,1
Metaldan tayyorlangan buyumlar	1 588,1	46,3
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	2 037,9	94,1
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashkari)	9 069,3	88,1
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	71 783,6	134,6
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	11 429,3	61,8
Avtomobillarning ehtiyot qismlari	2 858,9	110,8
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari, boshka joyda tasniflanmagan, va ularning elektr qismlari (boshka joyda tasniflanmagan elektr maishiy asboblarning elektr bo'lmagan kislari xam)	2 566,8	31,1
Turli hil tayyor buyumlar		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	1 281,3	34,2
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	551,3	35,0
Har hil tayyor buyumlar	1 070,4	119,0
Xayvonlar va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraktsiyalangan	4 385,8	56,9



MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(2022- yil yanvar-sentabrda, mln AQSh dollari, ulushi, foizda)



2022- yilning yanvar-sentabr oylari yakuni bo'yicha Sirdaryo viloyati tomonidan **46** davlatdan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Italiya, Qozog'iston, Germaniya, Koreya Respublikasi, va Turkiya) jami importning **90,3** % ulushini tashkil qildi, bu **302 232,6** ming AQSh dollarini tashkil etdi.



VILOYATNING IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2022- yil yanvar-sentabr, foizda)



SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN IMPORT HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (2022- yil yanvar-sentabr, yillar kesimida)




Davlatlar	Ming AQSh dollari		O'sish sur'ati, foizda		O'rni	
	2021	2022	2021	2022	2021	2022
Rossiya Federatsiyasi	98 513,0	41 665,6	153,9	42,3	3	6
Qozog'iston	106 390,1	123 636,4	158,9	116,2	2	3
Xitoy Xalq Respublikasi	54 168,0	58 962,0	98,0	108,8	4	4
Italiya	4 748,9	44 143,6	5,2 m.	9,4 m.	1	1
Koreya Respublikasi	2 093,9	7 296,2	37,5	3,5 m.	7	2
Turkiya	11 021,4	11 929,2	78,6	108,2	5	5
Germaniya	23 120,0	5 599,6	65,4	24,2	6	7

SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2022- yil yanvar-sentabr)



	Ming AQSh dollari	O'sish sur'ati, foizda
Sirdaryo viloyati	334 668,9	98,3
Boyovut t.	22 054,5	239,6
Guliston t.	1 114,0	53,0
Mirzaobod t.	6 407,7	87,5
Oqoltin t.	2 068,2	45,1
Sardoba t.	2 599,1	72,5
Sayxunobod t.	14 928,7	45,8
Sirdaryo t.	149 686,9	173,8
Xovos t.	6 812,2	72,0
Guliston sh.	45 786,2	112,0
Shirin sh.	802,4	1,0
Yangiyer sh.	82 409,0	121,4

Eng yuqori hajm,
ming AQSh dollari

Sirdaryo t.– 149 686,9

Yangiyer sh. – 82 409,0

Guliston sh. – 45 786,2

Eng quyi hajm,
ming AQSh dollari

Oqoltin t.– 2 068,2

Guliston t. – 1 114,0

Shirin sh. – 802,4

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo **44,7** % ulush bilan **149 686,9** ming AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat importi tarkibida eng quyi ulushni Shirin shahri **0,2** % ulush bilan **802,4** ming AQSh dollarini tashkil etdi.



OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA TIRIK HAYVONLAR IMPORTI



2022- yil yanvar-sentabr oylarida import tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar hajmi **129 019,0** ming AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **31,5** foizga ko'paydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **38,6** % ga yetdi.

Import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashinalar va transport asbob-uskunalari asosan qaysi davlatlardan viloyatimizga olib kirilayotganini quyidagi ma'lumotdan ko'rish mumkin.

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA TIRIK HAYVONLAR IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2022- yil yanvar-sentabr)



84,5%

Qozog'istan

109 053,5 ming.
AQSh dollari

7,4%

Rossiya Fedratsiyasi

9 554,2 ming.
AQSh dollari

3,7%

Qirg'iz Respublikasi

4 833,5 ming.
AQSh dollari

0,4%

Turkiya

562,0 ming.
AQSh dollari

0,3%

Germaniya

431,5 ming.
AQSh dollari



SANOAT TOVARLARI IMPORTI



2022- yil yanvar-sentabr oylarida import tarkibida sanoat tovarlari hajmi **20 273,5** ming AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **10,9** foizga kamaydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **6,1** % ga yetdi.

SANOAT MAHULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2022- yil yanvar-sentabr)



Rossiya Federatsiyasi

9 808,3 ming. AQSh dollari
ulushi – 48,4 %



Xitoy Xalq Respublikasi

3 989,4 ming. AQSh dollari
ulushi – 19,7 %



Qozog'iston

4 346,6 ming. AQSh dollari
ulushi – 21,4 %



Turkiya

954,6 ming. AQSh dollari
ulushi – 4,7 %



Sanoat tovarlari importi asosan probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (**9 069,3** ming AQSh dollari), cho'yan va po'lat (**5 267,7** ming AQSh dollari), va ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan (**2 037,9** ming AQSh dollari) va boshqalardan tashkil topgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.: (67) 236 86 34

